

XOJA SAMANDAR TERMIZIYNING “DASTUR UL-MULUK” ASARIDA ASHTARXONIYLAR-SAFAVIYLAR MUNOSABATLARINING YORITILISHI

Toʻlqin Mamatqobulov Eshqulovich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedra”
katta oʻqituvchisi.

tolqinmamatqobulov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21100429>

Annotatsiya: Maqolada Xoja Samandar Termiziyning “*Dastur ul-Muluk*” asari manbashunoslik nuqtayi-nazaridan tahlil qilinib, undagi Ashtarxoniylar-Safaviylar munosabatlariga oid maʼlumotlarning tarixiy ahamiyati yoritiladi.

Kalit soʻzlar: *Dastur ul-Muluk*, Xoja Samandar Termiziy, Ashtarxoniylar, Safaviylar, Buxoro xonligi, tarixiy manba.

XVII asr Buxoro xonligi tarixini oʻrganishda mahalliy tarixiy manbalar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shunday asarlardan biri Xoja Samandar Termiziyning “*Dastur ul-Muluk*” asari boʻlib, unda Ashtarxoniylar davlatining ichki va tashqi siyosati, jumladan, Safaviylar bilan munosabatlariga oid qimmatli maʼlumotlar keltirilgan. “*Dastur ul-Muluk*” (“Podshohlar uchun qoʻllanma”) XVII asr Buxoro xonligi tarixiga oid muhim tarixiy-manbashunoslik asari boʻlib, uning muallifi Muhammad Baqoxoʻja Xoja Samandar Termiziy taxallusi bilan mashhurdir. Muallifning hayoti va ilmiy faoliyati haqida “*Muhit at-tavorix*” hamda “*Muzakkir ul-asʼhob*” asarlarida ham maʼlumotlar uchraydi¹.

Xoja Samandar Termiziy taxminan 1630-yillarning oxirida Termizda tavallud topgan. U 1670-yillarda Abdulazizxon saroyida voqeanavis sifatida faoliyat yuritgan. Subhonqulixon hokimiyat tepasiga kelgach, uning ishonchini qozonib, Xorazm hukmdori Anushaxon hamda mahalliy isyonchilarga qarshi harbiy yurishlarda jangchi, elchi va tarixnavis sifatida bevosita ishtirok etgan². Uning 1693–1696-yillarda yozilgan “*Dastur ul-Muluk*” asari 22 bobdan iborat boʻlib, tarixiy, axloqiy va jangnoma janrlarini oʻzida mujassam etgan. Asar Buxoro xoni Subhonquli Muhammad Bahodirxonga (1681–1702) bagʻishlangan boʻlib, qisqacha muqaddimadan soʻng davlat boshqaruvida adolat tamoyillarining ahamiyatini yoritish bilan boshlanadi. Asarning 21-bobi XVII asrda Buxoro xonligida yuz bergan muhim tarixiy voqealar bayoniga bagʻishlangan.

1970-yilda M.A. Salohiddinova asarni rus tiliga tarjima qilib, uch qoʻlyozma asosida ilmiy-tanqidiy matnini tayyorladi hamda uni muqaddima, izohlar va

¹ Ахмедов Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI- XVIII вв. (Письменные памятники). – Ташкент, 1985. С. 78-80.

² Хoja Самандар Термизий. Дастур ул-мулук. Тошкент. Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1997. – Б. 15.

faksimile nusxasi bilan nashr ettirdi. 1997-yilda esa Jabbor Esonov tomonidan asar ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilinib, keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi³.

Asarda Abdulazizxon hukmronligining so'nggi yillari hamda Subhonqulixon davrining siyosiy voqealari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Unda Xorazm hukmdorlarining Buxoro xonligiga yurishlari, Anushaxonning yaralanishi va vafoti, G'oyibnazar devonbegining Bolo Murg'ob hamda Hirotga qilgan harbiy yurishlari, shuningdek, Xushikabiy yuz otaliqning Marvga yurishi batafsil yoritilgan. Asar, ayniqsa, Abdulazizxon va Subhonqulixon davridagi ichki hamda tashqi siyosatni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda Buxoro xonligining Xiva xonligi va Safaviylar davlati bilan olib borgan siyosiy-diplomatik munosabatlari keng yoritilgan. Muallifning qayd etishicha, dastlabki to'qnashuvda safaviy qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, qal'aga chekinadi. Ertasi kuni bo'lib o'tgan ikkinchi jang uzoq davom etib, Buxoro qo'shinining g'alabasi bilan yakunlanadi. Mag'lub bo'lgan safaviylar qal'adagi mavjud boyliklarni olib chekinishga majbur bo'ladi. Qal'a hokimi Abdulloh Sulton mag'lubiyatini tan olib, G'oyibnazarbiyga taslim bo'ladi va omonlik so'raydi. G'oyibnazarbiy Buxoroga qaytish chog'ida safaviylarga qarashli yana bir necha qal'a va mavzelnarni egallaydi, shuningdek, Maymana va Chechekta amirlari ham Buxoro xonligining hukmronligini tan oladi. Muallif ushbu g'alabani Subhonqulixon davrining eng muhim harbiy muvaffaqiyatlaridan biri sifatida baholab, zamondoshlari uni mislsiz zafar deb e'tirof etganini qayd etadi⁴.

Mazkur yurish Subhonqulixon davridagi eng muhim harbiy muvaffaqiyatlardan biri sifatida baholanishi mumkin. Biroq asarda Xurosonga yurishning aniq siyosiy yoki strategik sabablari batafsil izohlanmagan. Manbaga ko'ra, G'oyibnazar otaliq boshchiligidagi qo'shin Bolo Murg'ob hamda bir necha qal'a va mavzalnarni egallagach, Buxoroga qaytgan va harbiy harakatlar davom ettirilmagan. Bu holat yurishning asosiy maqsadi hududni uzoq muddat egallashdan ko'ra, davlatning harbiy salohiyatini namoyish etish hamda iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash bilan bog'liq bo'lganini taxmin qilish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur davrda Xiva xonligi va Safaviylar davlatidagi ichki siyosiy beqarorlik ham Buxoro xonligi uchun qulay sharoit yaratgan. Shu bois ushbu harbiy yurish Subhonqulixon tashqi siyosatining muhim natijalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

³ Хожа Самарқанд Термизий. Дастур ул-мулук. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1997. – Б. 247–249.

⁴ Хожа Самарқанд Термизий. Дастур ул-мулук. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1997. – Б. 183–189.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-Мулук. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997.
2. Аҳмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв. (Письменные памятники). – Ташкент: Фан, 1985.